

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy transformatcii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
To'ychiyev Otabek Shamshihevich	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
Abdullahayev Boburjon Akbaralievich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
H. З. Кахарова	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
Musyeva Shoiria Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
Хусанов Каҳрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
Bobayev Isroijon Abdinabiyevich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI MOLIYAVIY NAZORAT ETISHNING SAMARADORLIGI TAHLILI

**Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Bank ishi va buxgalteriya hisobi”  
kafedrasining mustaqil ilmiy izlanuvchisi



**Annotatsiya:** Maqolada oliv ta'lrim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etish samaradorligini tahlil etishning dolzarbligi va uning asosiy yo'nalishlari, moliyaviy oqimlarni va davlat mulkini boshqarish samaradorligini ta'minlash uchun tegishli moliyaviy nazorat mexanizmlarini yaratish, oliv ta'lrim sohasidagi davlat siyosatini tashkil etish, davlat moliyaviy nazoratini samarali va keng qamrovli tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarda inson faktorini kamaytirish, tizimli yo'l qo'yilayotgan moliyaviy xato-kamchiliklarning oldini olish masalalariga doir tadqiqot natijalari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lrim muassasasi, davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, davlat moliyasini boshqarish, moliyaviy oqimlar, nazorat mexanizmlari, moliyaviy nazorat samaradorligi, moliyaviy mexanizmni shakllantirish, ta'lrim sohasidagi davlat siyosati.

**Abstract:** In the article, the relevance of the analysis of the effectiveness of financial control of expenses in higher education institutions and its main directions, the creation of appropriate financial control mechanisms to ensure the effectiveness of financial flows and the management of state property, the organization of state policy in the field of higher education, the effective and comprehensive organization of state financial control, the results of the research on the issues of reducing the human factor in financial transactions and preventing systematic financial errors and deficiencies are reflected.

**Key words:** educational institution, state financial control, internal audit, state financial management, financial flows, control mechanisms, effectiveness of financial control, formation of a financial mechanism, state policy in the field of education.

**Аннотация:** В статье показана актуальность анализа эффективности финансового контроля расходов в высших учебных заведениях и его основных направлений, создания соответствующих механизмов финансового контроля для обеспечения эффективности финансовых потоков и управления государственным имуществом, организации отражены государственная политика в сфере высшего образования, эффективная и комплексная организация государственного финансового контроля, результаты исследований по вопросам снижения человеческого фактора в финансовых операциях и предотвращения систематических финансовых ошибок и недостатков.

**Ключевые слова:** образовательное учреждение, государственный финансовый контроль, внутренний аудит, государственное финансовое управление, финансовые потоки, механизмы контроля, эффективность финансового контроля, формирование финансового механизма, государственная политика в сфере образования.

## KIRISH

Oxirgi yillarda mamlakatimiz davlat moliyasini boshqarish tizimining barcha bosqichlarida, xususan, davlat moliyaviy nazorati va ichki auditini amalga oshirishda keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, tizimda qator kamchiliklar mavjud. Bizga ma'lumki, hozirgi kunga qadar Davlat moliyaviy nazorati tizimi hamda uni ishslash prinsipi mustaqillik davridan avvalgi yillardagi davlat moliyaviy nazorat tizimidan keskin farq qilmasdan kelmoqda. Chunki o'sha davrda budjetdan ajratilgan mablag'larni sarflanishida faqatgina qonun va qonun osti hujjatlar talablari to'g'ri bajarilishi, budjet mablag'larni talon-taroj va o'zlashtirishlarga yo'l qo'yilmasligi tekshirishning asosiy maqsadi bo'lgan bo'lsa, hozirda ham moliyaviy nazoratni amalga oshirishda ushbu maqsadlarga ko'proq urg'u berilmoqda, ya'ni barcha operatsiyalar amalga oshirilganidan so'ng qonun hujjatlariga zid bo'lmagan holda budjet mablag'lardan oqilonan foydalanilganligi, o'zlashtirish, kamomad, rejadan ortiqcha xarajatlar amalga oshirilmaganligiga baho berish bilan cheklanib qolinmoqda.



Hozirgi sharoitda O'zbekiston iqtisodiyoti moliyaviy, budget va soliq intizomining pastligi tufayli katta zarar ko'rmoqda. Budget mablag'lari va moddiy resurslardan boshqa maqsadlarda foydalanish O'zbekiston Respublikasining har bir budget tashkilotlarida va hududlarida amalda mavjudligini kuzatish mumkin. Natijador va samarali moliyaviy nazorat kuchli davlat mavjudligining asosiy sharti, davlat ravnaqi va barqarorligining muhim omilidir. Davlatning iqtisodiy sohadagi nazorat funksiyasi davlat va hududi (munitsipal) darajada moliyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish, shuningdek, budget mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish tizimini tashkil etishdan iborat. Davlatning davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari, eng avvalo, umumiy iqtisodiy vaziyat va iqtisodiyot oldida turgan vazifalar bilan belgilanadi.

Moliyaviy oqimlarni va davlat mulkini boshqarish samaradorligini ta'minlash uchun tegishli moliyaviy nazorat mexanizmlarini yaratish dolzarb bo'lib qoladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Xorijlik va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarining yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va uning mohiyati haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Xususan, davlat moliyaviy nazorati mohiyati va vazifalarini tadqiqotchi L.N.Ovsyannikovning fikricha: "Davlat moliyaviy nazorati – davlatning moliyaviy manfaatlarini va fuqarolarning moliyaviy huquqlarini qonunlar, tashkiliy, boshqaruv, huquqni himoya qilish vositalari orqali amalga oshiriladigan tadbirdir" [1].

V.D.Larichev ta'kidlaydiki, davlat moliyaviy nazoratinining maqsadi moddiy resurslardan foydalanish jarayonida ro'y beradigan, ya'ni huquqiy talablarning buzilishi, budget mablag'laring noqonuniy sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan qonunbuzarliklarni oldini olish, shuningdek, qonunbuzarliklarga sabab bo'lgan shaxslardan davlatga yetkazilgan zararni undirish va ularga nisbatan qonuniy choralarmi ko'rish, shuningdek, kelajakda bunday qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir [2].

Tadqiqotchi E.A.Voznesenskiy qayd etadiki, davlat moliya nazoratidan ko'zlangan maqsad mikro va makro darajada moliyaviy xarajatlar haqida tezkor ma'lumotga ega bo'lish, qonunbuzarliklarning oldini olish uchun mo'ljallangan, moliyaviy resurslar boshqarilishini ta'minlaydigan qarorlar qabul qilib, yangi vazifalarni belgilashdan iboratdir [3].

Shunday qilib, davlat moliya nazorati organlari faoliyati aksariyat iqtisodchi olimlar tomonidan ijobjiy baholangan. Ushbu fikrlarning davlat moliya nazoratinining muayyan tomonlarini, elementlarini tadqiq qilgan bo'lsa, ba'zi olimlar uning keng imkoniyatga egaligini e'tirof etadi. Iqtisodiy mavzuda nasr qilingan ilmiy adabiylotlarda hozirgacha, davlat moliya nazorati qaysi metodlardan foydalanib amalga oshirilishi haqida yagona fikr shakllanmagan.

Davlat moliya nazorati vazifalari va mohiyati bo'yicha yagona metodika mavjud bo'lmaganligi uchun, iqtisodchi olimlar orasida turli munozarali fikrlar mavjud. Eng muhimi yagona ilmiy asosga ega bo'lmagan yondashuvlar amaliyotda ham uchraydi.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga oid vazifalarni D.Pulatov umumlashtirishga harakat qilgan [4]. Tadqiqotchilar A.K.Ibragimov, R.M.Abdualimov ishlarida yangi taraqqiyot bosqichida davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish muammolari tahlil qilingan. O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini tashkil qilishning nazariy, metodologik asoslari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tashkiliy va uslubiy jihatlari, uni takomillashtirish masalalari iqtisodchi olma M.Tulaxodjayeva dissertatsiyasida ham o'rganilgan [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash usuli, ekspert baholash, monografik tadqiqotlar, sotsiologik kuzatishlar va ularning natijalarini tahlil qilish, dinamik tahlil va chiziqli bog'lanishlar usullaridan foydalanilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Davlat sektori har doim quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- rejaga muvofiq mablag'lardan maqsadli foydalanishning ustuvorligi;
- funksional va batafsil iqtisodiy tasnifning ustuvorligi;
- xarajat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rejalashtirish;
- qarorlar qabul qilishda markazlashuvning yuqori darajasi;
- faoliyati ustidan tashqi nazoratning ustuvorligi.



Cheklangan resurslardan foydalanishning eng samarali usullarini aniqlash, qabul qilingan qarorlarning samarali bajarilishini, faoliyat va ularning natijalari uchun javobgarlik va javobgarlikni ta'minlash moliyaviy nazorat e'tiborini davlat (shahar) muassasalarida sodir bo'ladigan ichki jarayonlarga qaratishga olib keladi. Shu munosabat bilan davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishning asosi va omili sifatida budget muassasalarida ichki moliyaviy nazoratni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, oliv ta'lif muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etish samaradorligi tahlil etishning dolzarbli va uning asosiy yo'nalishlarini tanlash quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Budget muassasalarining moliyaviy nazoratini amalga oshirish uchun iqtisodiyotdagagi global o'zgarishlar va davlat boshqaruvi tizimini isloq qilish munosabati bilan yangicha yondashuvlar va ish turlarini ishlab chiqish zarur.
2. Budget muassasalarida amaliy nazorat tizimini tashkil etish va qo'llash bo'yicha takliflar, shuningdek, budget va budgetdan tashqari mablag'lar sarflanishi ustidan nazorat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot ishi muammosining rivojlanish darajasi davlat moliyaviy nazorati bilan bog'liq bo'lib, shuni ta'kidlash kerakki, budget muassasalarida ichki moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari faqat bilvosita va qisman ko'rib chiqilgan. Budget muassasalarida ichki moliyaviy nazoratni tashkil etish va metodologiyasi, nazorat faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari bilan bog'liq muammolarning aksariyati ilmiy izlanishlarga muhtoj. Davlat moliyaviy nazorati organlarining shakllanishi va faoliyati bilan bog'liq ayrim masalalar bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan taklif qilingan yechimlar siyosiy haqiqatga mos kelishi kerak va bu O'zbekistonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar sharoitida juda qiyin.

Moliyaviy nazorat tizimida davlat moliyaviy nazorati alohida o'rinn tutadi. Bu davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish va takomillashtirish muammolarini o'rganishga e'tiborni kuchaytiradi.

Budget kodeksida ichki audit vazifalari, funksiyalari, bo'ysunish darajasi, hisobdorligi va boshqa huquqiy ahamiyatlari belgilab berilmagan. Bir so'z bilan aytganda, shu kunga qadar Davlat moliyaviy nazorati va ichki auditida yagona siyosat yuritish, moliyaviy nazorat organlarini uslubiy ta'minlash, faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul organ belgilanmagan. Hozirgi vaqtda amalda bo'lgan davlat moliyaviy nazorati tizimi to'liq saloxiyatda natijasini bergani yo'q.

Tahlil natijalaridan ko'rish mumkinki, budget qonunchiligini buzilishi holatlari-yildan-yilga ortib bormoqda. Ortib borishiga esa bir nechta omillar ta'sir qilishi mumkin: tekshirishlar soni ko'payganligi, budget xarajatlari oshganligi, davlat moliyaviy nazorati xodimlar soni ko'payganligi, ularni malaka ko'nikmalari oshganligi va boshqalar. Ammo, bizning nazarmizda bu omillar yuqorida ko'rsatkichlarni ortishiga bu darajada ta'sir qilmaydi. Bizning fikrimizcha bunga asosiy sabablardan biri moliyaviy operatsiyalarda IT texnologiyalarni yetarli tatbiq qilinmaganligi, kadrlarning malakasini oshirish yuzasidan maxsus o'quv seminarlar tashkil qilinmaganligi, har bir nazoratchi nazorat obyektida o'zi malakasi yetganicha moliyaviy nazorat tadbirini amalga oshirayotganligi, moliyaviy nazorat tadbiri davrida daromadlar va xarajatlar nazorati to'liq qamrab olinmasligi, hududiy davlat moliyaviy nazorati boshqarmalarida mutaxassislar oylik maoshi kamligi, ular faoliyati mahalliy hokimiyat organlari nazoratidaligi, to'liq mustaqil emasliliklari va boshqalar.


Shu bilan birga, oliv ta'lif muassasalarini o'zgartirish jarayoni bilan bog'liq holda oliv ta'limga moliyaviy mexanizmini shakllantirish xususiyatlarini va uning asosiy tarkibiy qismlarini har tomonlama o'rganish zarurati tug'iladi (1-rasm).

Bugungi kunda ta'limga me'yoriy-huquqiy asoslari allaqachon shakllantirilgan, oliv ta'lif muassasalarining avtonomligi oshirilgan, yangi ta'lif standartlari joriy etilgan. Shu bilan birga, oliv ta'lif muassasalarini boshqarish va moliyaviy ta'minlash, moliyalashtirishning budget va nobudget manbalarini maqbul uyg'unlashtirish, ulardan foydalanishning samarali modelini ishlab chiqish muammolarini mavjud. Bu borada oliv ta'lif muassasalarini tomonidan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muammolarini o'rganish, ayniqsa, dolzarbdir.

Oliv ta'lif muassasalarining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatining oshishi bevosita yetarli moliyaviy resurslarga bog'liqligini isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun ham, oliv ta'lif muassasalarini boshqarish tizimida moliyaviy mexanizm muhim o'rinn tutadi.

Biz oliv ta'limga moliyaviy mexanizmi umumiy moliyaviy mexanizmnning bir qismi sifatida oliv ta'lif sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning elementi deb hisoblaymiz.

Zamonaviy sharoitda oliv ta'limga moliyaviy mexanizmining muhim xususiyati oliv ta'lif va davlatning o'zaro ta'siri muammosidir. Davlat va oliv ta'lif muassasalar o'rtaida rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlar mulkchilik, boshqaruv, oliv ta'lif muassasalarining avtonomiya darajasi, moliyalashtirish mexanizmi va boshqalar bilan bog'liq munosabatlarning ma'lum bir majmuasini o'z ichiga oladi. Binobarin, bunday mexanizmnning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun oliv ta'lifni rivojlanishning davlat dasturi (strategiyasi) ishlab chiqilishi kerak, unda oliv ta'lif muassasalarini moliyalashtirishda strategik ustuvor yo'nalishlar nazarda tutiladi.

1-rasm: Oliy ta'limning moliyaviy mexanizmi sxemasi<sup>1</sup>

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- oliy ta'lim muassasalarini davlat budgeti mablag'lari hisobidan ta'minlash tamoyildan amalda mumkin bo'lgan miqdordarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga o'tish, kadrlar tayyorlash bo'yicha, lekin ularning sonini cheklamagan holda davlat buyurtmalari tizimini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarining, birinchi navbatda, moliya sohasida mustaqilligini takomillashtirish va chuqurlashtirish;
- qator ilmiy-tadqiqot muassasalarini yetakchi oliy ta'lim muassasalariga o'tkazishni amalga oshirish. Bu o'quv, ilmiy, shuningdek, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jarayonining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, professor-o'qituvchilar tarkibi darajasini oshirish, oliy ta'limning moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi;
- resurslarni, shu jumladan, budget mablag'larini boshqarishda, daromad keltiruvchi faoliyatning turli taraflarini amalga oshirishda moliyaviy mustaqillikni kengaytirish;
- budget mablag'larining sarflanishi oliy ta'lim muassasalari tomonidan budget tasnifi moddalariga muvofiq o'quv jarayoni ehtiyojlaridan tashqari mustaqil ravishda amalga oshirilishi kerak. Budget tasnifining barcha bandlari bo'yicha ta'lim organlariga budget mablag'larining sarflanishi to'g'risidagi hisobot taqdim etilishi kerak. Bu ta'lim statistikasining moliyaviy qismi uchun asos bo'lishi mumkin.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tashabbuskorlikni rivojlantirish va oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini, iqtisodiy mustaqilligini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

Oliy ta'limning moliyaviy mexanizmini takomillashtirishda budgetdan tashqari manbalar, jumladan, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan mablag'lar, xo'jalik shartnomalari mavzularini amalga oshirishdan tushadigan mablag'lar, homiylik mablag'lari va boshqalar rolini faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat bunday manbalarni quyidagi yo'llar bilan rag'batlanirishi kerak:

- korxonalar va tashkilotlarga mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan tushgan tushumming ma'lum foizida ushbu mablag'lardan yoshlarning akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalarida o'qishi uchun haq to'lash maqsadida soliq imtiyozlari berish;
- oliy ta'limni kreditlash va sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish;

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



- birinchi navbatda universitet fanlari sohasida homiylik va homiylikni rivojlantirishni rag'batlantirish;
- o'qituvchilar va talabalar uchun grantlar shaklida xorijiy investorlarning mablag'larini jalg etishga ko'maklashish;
- oliy ta'limga muassasalariga ko'rsatayotgan ta'limga xizmatlarini (mahsulotlarni) sotishdan olingan daromadlar bo'yicha soliq imtiyozlari berish, shu jumladan, mulkni ijara berish va boshqalar.

Oliy ta'limga muassasalariga faoliyatining moliyaviy mexanizmini takomillashtirishning yana bir yo'li – oliy ta'limga muassasalarini ilmiy-tadqiqot markazlariga aylantirish orqali milliy innovatsion tizimni shakllantirishda ularning ishtirotini rag'batlantirishdir.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'limga muassasalarining innovatsion faoliyatidan (o'z ilmiy tadqiqotlarini, shu jumladan, xorijda amalga oshirishdan) olingan daromadlar oliy ta'limga muassasalar uchun muhim qo'shimcha moliyaviy manbaga aylanishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, boshqa tarmoqlar bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan, fundamental tadqiqotlarni tarmoqqa yo'naltirilgan (idoraviy ilmiy-tadqiqot muassasalar bilan hamkorlikda) va o'zini-o'zi ta'minlovchi (xo'jalik yurituvchi subeektlar buyurtmasi bo'yicha) ilmiy tadqiqotlar bilan birlashtirgan klassik universitetlarga taalluqlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirda davlat moliyaviy nazorati tizimidagi aniq muammolar mavjudligi hamda ularni zamon talabiga mos ravishda bosqichma-bosqich takomillashtirish talab etilmoqda. Ushbu muammolar esa quyidagilar:

- Hisob palatasi, davlat moliyaviy nazorati departamenti, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari vazifalari va javobgarlik chegaralari, o'zaro ma'lumotlar almashinishi, huquq tartibot idoralari bilan hamkorliklari, huquqlari, moliyaviy nazorat tadbirlarini o'tkazishda bir birlarini takrorlanmaslik chegarali qonun hujjati bilan to'liq belgilanmagan;
- Ichki audit tizimi huquqiy mavqeysi, vazifalari, funsiyalari Budget kodeksida o'z aksini topmagan;
- yagona siyosat yuritish, moliyaviy nazorat organlarini uslubiy ta'minlash, faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul organ belgilanmagan;
- Hisob palatasi xodimlarining mehnat faoliyatini mustaqilligi qonun bilan ta'minlanmagan;
- Tizimli kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti mavjud emas;
- Oliy ta'limga muassasalarida, tizimda ish faoliyatini boshlagan xodimlarga o'zbek tilida nashr etilgan davlat moliyaviy nazoratidan nazariy va amaliy bilim olishlari uchun o'quv qo'llanmalar yetarli emas;
- Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti huquqiy maqomi teng bo'lgan ikkinchi bir vazirlikda moliyaviy nazorat tadbirini amalga oshirish amaliyoti zamonaviy moliyaviy nazorat amaliyotida mavjud bo'lmagan. Shu sababli ham, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiysi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o'tkazilishi belgilanmoqda. Departament va Hisob palatasi birgalikda ishlab, yashirin iqtisodiyotni jilovlash va budget mablag'larini to'g'ri sarflanishi uchun javobgar bo'ladi.

Budget tizimida davlat moliyaviy nazoratin shunday tashkil etish lozimki, budget mablag'ları hisobidan amalga oshirilayotgan noqonuniy harakatlarga texnik jihatdan yo'l qo'ymaslik yoki bunday xarajatlar amalga oshirilganda xavf tahlili orqali real vaqt rejimda oshkor bo'lishi lozim. Va albatta, aybdorlarga nisbatan doimo qonuniy chora ko'riliishi lozim.

Shu munosabat bilan 2021-yil 27-avgustda "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6300-son Farmoni qabul qilingan edi. Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budget mablag'laridan maqsadli va oqilonha foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va turlariga qo'shimcha quyidagilar amaliyotga joriy etildi:

- buxgalteriya (budget) hisobi yuritilishini, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini, moliyaviy resurslardan maqsadli va qonuniy foydalanilganligini hamda daromadlarning to'liqligini, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini baholashni nazarda tutuvchi moliyaviy audit;
- konsolidatsiyalashgan va jalg qilingan budget mablag'laridan foydalanishda, davlat xaridlarini amalga oshirishda, shuningdek, daromadlarning to'liqligini ta'minlash va biznes jarayonlarida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga riosa qilinganligini va ularning davlat dasturlariga muvofiqligini tekshirish va baholashni nazarda tutuvchi muvofiqlik audit;
- nazorat obyektida xarajatlar, subsidiyalar, imtiyozlari va preferensiyalarning samaradorligi va natijadorligini, ajratilgan mablag'lardan foydalanishning tejamkorligini, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini, konsolidatsiyalashgan budget va jalg qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi va natijadorligini, shuningdek, davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligini baholash va tahlil qilishni nazarda tutuvchi samaradorlik auditi.



Shu bilan birga, yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti vakolatiga o'tkazilayotgan Davlat moliyaviy nazoratini samarali va keng qamrovli tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarda inson faktorini kamaytirish, tizimli yo'l qo'yilayotgan moliyaviy xato-kamchiliklarni oldini olish maqsadida quyidagilarni joriy etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1. “Davlat moliyaviy nazorati va audit to'g'risida” Qonun qabul qilish, Qonunda davlat nazorat organlari va ichki audit xizmatlarining vazifalarini aniq belgilash;
  2. Hisob palatasi tizimida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti vakolatiga o'tkazilayotgan Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutini tashkil etish;
  3. Oliy ta'lim muassalari hamda tizimda ish faoliyatini boshlagan xodimlarga nazariy va amaliy o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish;
  4. Hisob palatasini xodimlari mehnat faoliyatini mustaqilligini qonuniy ta'minlash;
  5. Barcha budget hisobi moliyaviy operatsiyalari informatsion texnologiyalar, maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar orqali elektron tarzda amalga oshirilishini inobatga olgan holda, davlat budgeti mablag'larni hisob kitobi bilan bog'liq dasturiy majmualarni nazorat qilish audit sho'basini tashkil etish.
- Ushbu sho'ba xodimlariga yuklatiladigan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:
- Davlat moliyaviy nazorati yakuni bilan mavjud avtomatlashtirilgan dasturiy majmualarda tizimli aniqlanayotgan xato va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish;
  - Inson faktori bilan yo'l qo'yilayotgan moliyaviy xato kamchiliklarni tizimli aniqlash hamda avtomatlashtirilgan dasturlar bilan to'liq qamrab olishni tashkillashtirish;
  - Vazirlıklar, idoralar va boshqa yuridik shaxslar nazoratida mavjud bo'lgan avtomatlashtirilgan dasturlarning elektron bazalaridan foydalangan holda, budget mablag'lari sarflanishi jarayonida moliyaviy xavflarni baholovchi hamda xabar berib boradigan tizimni yaratish, doimiy nazorat qilib borish va boshqalar.

## XULOSA

Yuqorida shakllantirilgan fikr va mulohazalar asosida ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili bo'yicha quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar shakllantirildi hamda tizimni takomillashtirish uchun berilayotgan takliflar amalga oshgan taqdirda quyidagi ijobji natijalarga erishilishi mumkin bo'ladi.

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat moliyaviy nazorati va audit to'g'risida”gi Qonuni qabul qilinishi orqali davlat moliyaviy nazorat organlari va ichki audit xizmatlarining vazifalari aniq belgilanadi;
2. Barcha moliyaviy nazorat organlari uchun yagona ma'lumotlar bazasi yaratilish, kameral nazorat, risk-tahlil asosida keng qamrovli nazorat tizimi tashkillashtiriladi;
3. Davlat moliyaviy nazorati xodimlarini malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi yaratilish, xodimlarning saviyasi va amaliy ko'nikmalari oshiriladi, tizim uchun yaratilgan o'quv qo'llanmlari ish faoliyatini samarasini oshiradi.
4. Tekshirishlarni takrorlanishi oldi olinadi, korrupsiya holatlari kamayadi, budget tashkilotlarining budget intizomiga qat'iy rioya etilishi ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Овсянников Л.Н. Государственный финансовый контроль: подходы к стандартизации. // Финансы, –2010. –с.5.
2. Ларичев В.Д. Теоретические основы предупреждения преступлений в сфере экономики: Моногр. –М.: Юрлитинформ. –2010. –с.19.
3. Вознесенский Э.А. Финансовый контроль за деятельность промышленных предприятий. –М.: Изд-во ЛГУ, 2013. –с.27.
4. Пулатов Д. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в узбекистане. Perspectives of Innovations, Economics and Business. 2009. –Т. 2. –№ 2. –С. 49-50.
5. Тулаходжаева М. организация и методы финансового контроля в Республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук.–Москва, 1998.
6. Artikov K.A. Oliy ta'lim muassasalari faoliyati moliyaviy ta'minoti hisobi va nazoratini takomillashtirish masalalari. –“Moliya” ilmiy jurnalı, 2019 yil 3-son. –104-112 b.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

